Iqtisodiy agentlar barqarorligi bevosita moliya kategoriyasi bilan uzviy aloqadorlikda bo'lib, moliyaviy barqarorlik orqali ifodalanadigan ushbu kategoriya pul fondlarini tashkil qilish va ulardan foydalanish bilan bog'liq munosabatlar tizimini qamrab oladi. Tijorat tashkiloti faoliyatining bosh maqsadi foyda olish hisoblanib, u moliyaviy resurslar harakatining moddiy asosini tashkil qiladi. Shuning uchun ham moliyaviy barqarorlik iqtisodiy agentlar iqtisodiy barqarorligida alohida ahamiyat kasb etadi. Ushbu fikrning tasdig'i sifatida rossiyalik iqtisodchilar e'tirof etishlaricha, moliyaviy barqarorlikning iqtisodiy barqarorlikdagi yetakchi roli shu bilan belgilanadiki, ushbu kategoriya biznesning samaradorligini asosiy indikatorlarini o'zida mujassamlashtirishini va iqtisodiy rivojlanishga yo'naltiriladigan ichki hamda tashqi moliyaviy resurslarni mobilizatsiya qilish imkoniyatlarini ifodalashini ta'kidlaydilar⁶. Ushbu argumentga asoslangan holda zamonaviy moliyaviy menejment tizimida moliyaviy barqarorlikning 2 asosiy funksional vazifasini ko'rishimiz mumkin, ya'ni birinchidan, moliyaviy barqarorlik biznes moliyaviy samaradorligini baholash; ikkinchidan, rivojlanish budjeti uchun moliyaviy imkoniyatlarni ro'yobga chiqarish. Shuningdek, iqtisodiy agentlardagi moliyaviy barqarorlik ko'rsatkichining pasayishi to'lov qobiliyati, likvidlilik ko'rsatkichlarining pasayishiga, ishlab chiqarishdagi uzilishlarga va natijada inqirozli holatlarning vujudga kelishiga olib kelishi mumkin.

Moliya fani taraqqiyoti tendensiyalarida moliyaviy barqarorlik va uni boshqarish tizimining nazariy talqinida 2 xil yondashuvni ko'rishimiz mumkin: birinchisi, raqobat mavqeini saqlash imkoniyati; ikkinchisi, to'lov qobiliyati yoki likvidlilikni ta'minlash.

Masalan, tarixiy retrospektivada "Moliyaviy barqarorlik" tushunchasining zamonaviy talqinining ilk ko'rinishi g'arb iqtisodchi olimlari tomonidan tizimlashtirilganligi e'tirof etiladi. Xususan, K. Klavaki, M. Gext, G. Puzor va L. Brentalolar xo'jalik subyektlari moliyaviy barqarorlik nazariyasining asoschilari sifatida e'tirof etilib, ular moliyaviy barqarorlikning tashqi namoyon bo'lish shakllari sifatida kichik va yirik mulkchilik shakllarini nisbiy solishtirish orqali ifodalashgan.⁷ Ushbu yondashuvda moliyaviy barqarorlik tushunchasi nisbatan abstrakt tarzda ifodalangan bo'lib, kichik mulkchilik shaklidagi korxonalar raqobatbardoshligining nisbiy moliyaviy imkoniyatlariga asoslangan holda primitiv tarzda aniqlik kiritilgan. Albatta, raqobatbardoshlikning bosh moliyaviy omillari sifatida, avvalo, yetarli darajadagi moliyaviy zahiralarning mavjudligi, moliyaviy zahiralarni to'plash imkoniyati va nihoyat, moliyaviy resurslarni jalb qilishdagi nisbiy yuqori imkoniyatlarga yuqoridagi ilk moliyaviy barqarorlikni tizimlashtirishda urg'u berilgan.

XIX asr oxiri va XX asrning boshlarida g'arb mamlakatlaridagi texnologik taraqqiyot, iqtisodiyotdagi xususiy sektorning rivojlanishi hamda keskin raqobat muhiti sharoitida barqaror rivojlanish bilan bog'liq muammolarning keskinlashuvi, siklik iqtisodiy tebranishlar sharoitida xususiy sektor kompaniyalari barqaror iqtisodiy rivojlanishini ta'minlash bilan bog'liq muammolarni tadqiq qilish rivojlanib bordi. Natijada xo'jalik subyektlarida iqtisodiy barqarorlikning bosh shartlaridan biri tez o'zgaruvchan tashqi va ichki muhit shart-sharoitlariga moslasha olish, operativ boshqarish qobiliyati hisoblana boshladi.

Yuqorida ta'kidlanganidek, moliyaviy barqarorlik iqtisodiy agentlarning moliyaviy salohiyatiga oid miqdor va sifat ko'rsatkichlarini o'zida mujassamlashtirib, moliyaviy qarorlar qabul qilishdagi fundamental ko'rsatkichlar

4 Tuktarova L.R. Strategiya obespecheniya xozyaystvennoy ustoychivosti predpriyatiya: organizatsionno-ekonomicheskij aspekt. Saratov: Izd-vo Saratov. un-ta, 2007. 160 s

5 Chernyayeva O.A. Ekonomicheskij mexanizm upravleniya ustoychivostyu funkcionirovaniya predpriyatiy // Vestn. Samar. gos. ekonom. un-ta. 2008. № 8 (46). S. 124–128.

6 Dolgix Yu.A., Agarkov G.A. K probleme sovremennogo ponimaniya finansovoy ustoychivosti predpriyatiya // Vestnik URFU. Seriya Ekonomika i upravleniye. № 2/2014.-S.147

7 Kurilova A.A. Sovremennye konsepsii finansovoy ustoychivosti v finansovom menedjmente // Karelskiy nauchnyy jurnal. 2017. T.6. № 1(18).

hisoblanadi. Shuning uchun ham moliyaviy barqarorlik va uning tizimli paradigmaga asoslangan taraqqiyoti moliyaviy menejmentning fan va amaliyotning maxsus segmenti sifatidagi taraqqiyot qonuniyatlari hamda konseptual asoslariga muvofiq shakllanib borgan.

Zamonaviy moliyaviy menejment tizimidagi moliyaviy barqarorlik va uning tizimli arxitekturasini, moliyaviy barqarorlikni boshqarishning taktik va strategik vektorini o'zida mujassamlashtiruvchi instrumentlarning ilmiy-konseptual asoslarini F. Blek, Yu. Briksen, L. Gapenski, D. Daves, J. Lintner, S. Mayers, G. Markovis, M. Miller, F. Modilyani, U. Sharp, M. Shoulz va boshqalarning ilmiy tadqiqot ishlarida ko'rishimiz mumkin⁸. Ushbu iqtisodchilar aynan moliyaviy barqarorlikning fundamental asoslarini kompleks tadqiq qilmagan bo'lsalar-da, moliyaviy menejmentning turli sohalariga oid ilmiy ishlanmalari asosida iqtisodiy agentlarning muvozanatlashgan rivojlanishi, uning bozor qiymatini maksimallashtirishni ta'minlovchi kompleks omillar qatorida moliyaviy barqarorlikni boshqarishning ayrim jihatlarini tadqiq qilishgan. Ushbu iqtisod olimlar tomonidan tizimlashtirilgan moliyaviy menejmentning konseptual asoslari asosan moliyaning neoklassik nazariyasining rivojlanishi uchun xizmat qilgan. Ma'lumki, moliyaning neoklassik nazariyasini klassik nazariyadan farqli jihatlaridan biri moliya kategoriyasining iqtisodiy tabiatini yoritishda uning fondlarni shakllantirish va ulardan foydalanish bilan bog'liq jihatlariga emas, balki asosiy aksent iqtisodiy agentlar faoliyati natijasida zamon va makonda bir-biriga o'zaro assimetrik tavsifdagi defitsit bo'lgan pul oqimlarini boshqarishning fundamental qoidalarini tadqiq qilishga qaratilganidir. Demak, mantiqan olib qaraganda, moliya nazariyasi taraqqiyotining 2 davridagi ilmiy qarashlar taqchil bo'lgan pul mablag'larini boshqarishga qaratilgan bo'lib, moliyaviy barqarorlikning elementi hisoblangan likvidlik paradoksi zamonaviy neoklassik moliya nazariyasining fundamental asosini tashkil qilmoqda.

Zamonaviy sharoitlarda moliyaviy barqarorlikni o'rta va uzoq istiqbol vektorida boshqarish hamda qo'llab-quvvatlash tez o'zgaruvchan nobarqaror makroiqtisodiy muhit sharoitida dolzarb hisoblanib, ayni paytda uni boshqarishning keng moliyaviy instrumentlari va ko'rsatkichlari tizimi shakllantirilgan. Lekin moliyaviy barqarorlik va uni ta'minlash tizimi elementlari, uning etimologik talqini yuzasidan nazariy va amaliy yondashuvlarda turli polisemantik qarashlar mavjudligini ko'rishimiz mumkin.

Zamonaviy sharoitlarda makrofiskal indikatorlar orqali makromoliyaviy barqarorlikni ta'minlashning ilmiy-nazariy asoslarini tadqiq qilib, xorijlik iqtisodchi J. Trishet makromoliyaviy barqarorlikni pul bozorlarining xavfsiz amal qilishi sharoitida moliyaviy institutlar bilan uyg'unlashgan holda hamkorlik qilish imkoniyati sifatida tizimlashtirgan⁹. Demak, moliyaviy barqarorlikning makroiqtisodiy jihatlarini bo'yicha ushbu yondashuvda asosiy urg'u pul bozorlaridagi muvozanatga qaratilgan bo'lib, uning asosiy determinantlari sifatida milliy daromad, foiz stavkalari, pul agregatlari optimal nisbati darajasidagi me'yoriy inflyatsiya, milliy iqtisodiyot monetizatsiya koeffitsiyenti¹⁰, mamlakat to'lov tizimi muvozanatini ifodalovchi debitorlik va kreditorlik qarzlari, yalpi fiskal yuk kabi ko'rsatkichlar orqali ifodalanadi. Ushbu masalada 1-jadvalda keltirilgan J. Garri Shinasinining fikrlarida ham asosan iqtisodiyotdagi to'lov tizimining uzluksiz amal qilishiga e'tibor qaratilganligini ko'rishimiz mumkin. J. Fridmuk esa asosan turli moliyaviy indikatorlar yoki moliya tizimida kuzatiladigan defolt simptomlari orqali namoyon bo'luvchi moliyaviy inqirozlarga nisbatan milliy iqtisodiyotda shakllanadigan, tom ma'noda aytganda, o'ziga xos ravishdagi "Moliyaviy immunitet" yoki "Himoya yostig'i"ning zahirasi sifatida e'tirof etadi. Iqtisodchi A. Krokett esa moliyaviy barqarorlikning institutsional jihatlariga ham e'tiborni qaratib, unda moliyaviy aktivlar bozoridagi normal konyunktura, moliyaviy sektor to'lov qobiliyati va iqtisodiyotdagi ishbilarmon faollik ko'rsatkichlari moliyaviy barqarorlikning ifodasi ekanligiga e'tibor qaratgan. Yuqoridagi qarashlarda asosan makroko'lamda yoki milliy iqtisodiyot masshtablarida moliyaviy barqarorlikni ta'minlashning asosiy komponentlari va institutsional tarkibiga aniqlik kiritilgan bo'lib, tovarlar va xizmatlar, resurslar harakati hamda unga teskari trayektoriyadagi to'lov omillari harakatini o'zida mujassamlashtiruvchi makroiqtisodiy barqarorlikning asosiy tarkibiy elementi sifatidagi xususiyatlari yoritilgan.

Moliyaviy barqarorlikni ma'lum iqtisodiy subyektlarga nisbatan aniqlik kiritilganda, ijtimoiy takror ishlab chiqarishning har qaysi masshtabida kuzatilmasin (milliy iqtisodiyot), uning uzluksizligini ta'minlashning moliyaviy omillarini qamrab olishini kuzatishimiz mumkin¹¹.

8 Black F., Scholes M. The Pricing of Options and Corporate Liabilities // *PolitEcon.* – 1973.; Brealey R. and Myers S. and Allen F. Principles of corporate finance. Seventh edition. Mc Gravu Hill McGraw-Hill., 2020.; Brigsen Yu., Gapenski L. Finansovyy menedjment.: per. s angl./ pod red. V.V. Kovaleva, - SPb.: Ekonomicheskaya shkola, 1997.; Davies D. The Art of Managing Finance. Mc. Graw-Hill, inc, 1992; Lintner J. Prices, Risk and Maximal Gains from Diversification// *Finance.* 1965. - № 4. Dec.; Markowitz H. Portfolio Selection// *Finance.* - 1952. - March.; Modilyani F., Miller M. Skolko stoit firma? Teorema MM: per. s angl. - M.: Delo, 1999; Mossin J. Equilibrium in Capital Asset Market // *Econometrica.* - 1966. - № 4. Oct.; Sharpe W.F. Capital Asset Prices: A Theory of Market Equilibrium under Conditions of Risk // *Finance.* -1964. -September.

9 M.A. Vlasenko Upravleniye finansovoy ustoychivostyu organizatsii: Metod. aspekt. Diss.na soiskaniye stepeni ken // Novosibirsk 2022.

10 Izoh: Monetizatsiya koeffitsiyenti-YAIMni keng pul massasiga nisbati sifatiga ifodalab ($Km=M2/GDP$), iqtisodiyotni pul mablag'larini bilan ta'minlanganlik darajasini ko'rsatadi. Ya'ni, masalan, 1 so'm YAIMga qancha muomada pul to'g'ri kelishini ko'rsatadi.

11 Izoh: Yahlit milliy iqtisodiyot, tarmoqlar iqtisodiyoti, konkret xo'jalik yurituvchi subyektlar kesimidagi moliyaviy barqarorlik ko'rsatkichlari nazarda tutilmoqda.



Xususan, Zorn A., Esteves M., Baur I., Lips M. kabi xorijlik iqtisodchilar moliyaviy barqarorlikni konkret korporativ tuzilmalarga nisbatan tizimlashtirgan holda normal darajadagi rentabellik, likvidlilik va to'lov qobiliyati ko'rsatkichlari orqali namoyon bo'luvchi holat sifatida baholaydilar. Ushbu yondashuvda iqtisodchilar moliyaviy barqarorlikni ma'lum statsionar vaziyatlarda korporativ tuzilmalar takror ishlab chiqarish jarayonining uzluksizligi va barqarorligini ta'minlashning moliyaviy ko'rsatkichlariga e'tibor qaratishgan¹².

Ma'lumki, vertikal integral tashkiliy tuzilmalarga asoslangan xo'jalik subyektlari yoki mulkchilikning turli shakllarida faoliyat olib boruvchi xo'jalik subyektlari moliyaviy-xo'jalik faoliyatining barqarorligi to'g'risida fikr yuritilganda aksariyat iqtisodchilar barqarorlikning chegaraviy mezonlariga alohida to'xtalib o'tadilar. Ushbu chegaraviy mezonlar sifatida xo'jalik faoliyatining me'yoriy faoliyati uchun moliyaviy imkoniyatlarning chegaraviy mezonlari, ya'ni moliyaviy nochorlik yoki bankrotlikning moliyaviy barqarorlik kategoriyasi bilan dialektik bog'liqligi nazarda tutilishini keyingi jadvaldagi argumentlardan ko'rishimiz mumkin.

Xususan, tadqiq qilingan yetakchi iqtisodchi olimlarning ilmiy qarashlariga muvofiq, bankrotlikning chegaraviy omillarini aniqlashda moliyaviy natijalar, moliyaviy barqarorlik va ishbilarmon faollikning turli indikatorlaridan foydalanilganligini guvohi bo'lishimiz mumkin. Masalan, E. Altmanning 2, 5, 7 parametrlil integral modeli asosiy ko'rsatkichlar sifatida joriy likvidlilik, kapitalizatsiya koeffitsiyentlari (2 parametrlil model), joriy aktivlarning jami aktivlardagi ulushi, aktivlar rentabelligi, soliqqa tortilgunga qadar foydaning (operatsion foyda) aktivlarga nisbati, aksiyalar bozor qiymatining jami majburiyatlarga nisbati, tushumning aktivlarga nisbati koeffitsiyentlari hamda ushbu koeffitsiyentlarning empirik tadqiqotlar natijasidagi konstantalariga asoslangan. Yetti parametrlil modelda esa foydaning dinamik ravishdagi o'zgaruvchanligi va kumulyativ foyda parametrlari hamda mustaqillik koeffitsiyentlari hisobga olingan (1-jadval).

1-jadval. "Moliyaviy barqarorlik" va "Bankrotlik" kategoriyalari dialektik bog'liqligiga asoslangan g'arb iqtisodchi olimlarining qarashlari¹³

№	Mualliflar nomi	Etimologik talqini	Manba
1.	E. Altman	Altman Z-modeli (3,5,7 omilli) yoki indeksi asosida bankrotlik riski darajasi va moliyaviy barqarorlik darajasi tavsiya qilingan	Altman E. Corporate Financial Distress and Bankruptcy, 2nd ed., John Wiley & Sons, New York, 1993.
2.	U. Biver	Moliyaviy barqarorlikni kritik mezoni sifatida bankrotlik diagnostikasining besh omilli modeli va uch guruhdagi tipologiyasi ishlab chiqilgan	Beaver W.H. Financial Ratios as Predictors of Failure // Wayback Machine/Empirical Research in Accounting Selected Studies // Journal of Accounting Research uen, 1966, №4 — pp. 71-111
3.	R. Taffler va G. Tishou	Altman Z-modeli testi asosida moliyaviy barqarorlikning chegaraviy mezoni sifatida bankrotlikni prognozlashtirishning 4 moliyaviy koeffitsiyentli modeli ishlab chiqilgan	Taffler R.J., Tishshaw H.J., Going, Going, Gone, Four Factors Which Predict // Accountancy. 1977. №88 (1003). P. 50–54.
4.	R. Lis	Moliyaviy barqarorlikning chegaraviy mezoni sifatida bankrotlikni aylanma aktivlar, operatsion foyda, taqsimlanmagan foydani aktivlarga nisbati va mustaqillik koeffitsiyenti chegaraviy mezonlari orqali ifodalaydi	https://finzz.ru/modeli-bankrotstva-zarubezhnyx-predpriyatij-4-mda-modeli.html
5.	Zorn A., Esteves M., Baur I., Lips M.	Moliyaviy barqarorlikni normal darajadagi rentabellik, likvidlilik va to'lov qobiliyati ko'rsatkichlari orqali namoyon bo'luvchi holat sifatida baholaydi	Zorn, A., Esteves, M., Baur, I., & Lips, M. (2018). Financial ratios as indicators of economic sustainability: A quantitative analysis for Swiss Dairy Farms Sustainability, 10(8), 2942.

Umuman, xo'jalik yurituvchi subyektlar inqirozga qarshi boshqaruv tizimida bankrotlik ehtimolligini prognoz qilishning yuqoridagi modellarida umumiy metodologik yondashuv integral ko'rsatkichlarni hisoblashda namoyon bo'lsa-da, ushbu ko'rsatkichlar bo'yicha bankrotlik ehtimolligini prognoz qilishning chegaraviy mezonlari bir-biridan farqlanadi. Shuningdek, asosiy farqli jihatlardan biri ushbu koeffitsiyentli usullar tarkibida

¹² Zorn, A., Esteves, M., Baur, I., & Lips, M. (2018). Financial ratios as indicators of economic sustainability: A quantitative analysis for Swiss Dairy Farms Sustainability, 10(8)

¹³ Muallif ishlanmasi

foydalanilgan koeffitsiyentlar spektrining kengligi hisoblanadi. Xususan, U. Biver tomonidan tizimlashtirilgan model asosan moliyaviy holatni ifodalovchi koeffitsiyentlar va moliyaviy natijalar samaradorlik koeffitsiyentlarini o'zida mujassamlashtirgan. R. Taffler va G. Tishoular asosan E. Altman modelini rivojlantirgan bo'lib, unda asosiy koeffitsiyentlar sifatida moliyaviy holatni ifodalovchi koeffitsiyentlarga urg'u berilgan. Ingliz iqtisodchisi R. Lis esa bankrotlik ehtimolligini prognoz qilishning to'rt parametrlilik modelida moliyaviy natijalar samaradorlik ko'rsatkichlari orqali baholagan. A. Zorn, M. Esteves, I. Baur, M. Lipslar esa bevosita bankrotlik ehtimolligini prognoz qilishda aynan moliyaviy holat va moliyaviy barqarorlik ko'rsatkichlaridan foydalanilganligini ko'rishimiz mumkin.

Ushbu masalada umummetodologik yondashuvga asoslangan ilk ilmiy qarashlar va ko'p omilli parametrik integral modelni tizimlashtirgan iqtisodchi olimlardan biri E. Altman modelini ko'radigan bo'lsak, moliyaviy barqarorlik zonasining kritik ko'rsatkichlariga asoslangan Z-model deb nomlagan hamda 3, 5, 7 parametrlilik integral modelini taklif qilgan¹⁴. Xususan, ma'lum stansionar davrda korxonalar uchun moliyaviy majburiyatlarni yo'qotish qobiliyatining ikki parametrlilik Z-ball indeksida¹⁵ joriy likvidlilik va kapitalizatsiya koeffitsiyentlari ko'rsatkichlaridan iborat indeksni taklif qilgan. Ushbu bankrotlik ehtimolligining oddiy uslubiyoti hisoblanib, bunda ikkita omil ya'ni joriy likvidlilik koeffitsiyenti (X_1) va kapitalizatsiya koeffitsiyenti sifatida qarz mablag'larining jami passivlardagi ulushiga asoslangan.

$$Z = -0,3877 - 1,073X_1 + 0,0579X_2 \quad (1.1)$$

Z-ball indeksining kritik ko'rsatkichlari sifatida 3 ta chegaraviy mezonlarni taklif qilgan. Ushbu chegaraviy mezonlar quyida ifodalanadi:

$$\left\{ \begin{array}{l} \text{Agar } Z < 0 \text{ bo'lsa, bankrotlik ehtimolligi } 50 \% \text{ dan past, } Z \text{ indeksning} \\ \text{kamayishi bilan ehtimollik kamayib boradi;} \\ \text{Agar } Z > 0 \text{ bankrotlik ehtimolligi } 50 \text{ dan yuqori, } Z \text{ indeksning} \\ \text{ortishi bilan ehtimollik ortib boradi;} \\ \text{Agar } Z = 0 \text{ bankrotlik ehtimolligi } 50 \% \text{ ga teng} \end{array} \right. \quad (1.2.)$$

Bankrotlik ehtimolligini prognoz qilishning yuqoridagi koeffitsiyentli usullarini solishtirma tahlillari natijasida quyidagi xulosalarni tizimlashtirish mumkin:

1. Moliyaviy barqarorlik va bankrotlik tushunchalari o'zaro bir-birini to'ldiruvchi kategoriyalar hisoblansa-da, ularni aniqlash uslubiyati bo'yicha o'zaro farqli jihatlar mavjuddir.
2. Bankrotlik ehtimolligi nafaqat moliyaviy holatni yoki moliyaviy barqarorlikni ifodalovchi ko'rsatkichlarga, balki moliyaviy natijalar samaradorligi va ishbilarmon faollik ko'rsatkichlariga ham bog'liq hisoblanadi.
3. Bankrotlik ehtimolligi prognozlari moliyaviy barqarorlikning zahirasi kritik chegaraviy mezonlarini o'zida mujassamlashtiradi. Moliyaviy barqarorlik esa ma'lum retrospektiv davrdagi samarali moliyaviy-xo'jalik faoliyati natijasida to'plangan moliyaviy zahiralarni o'zida mujassamlashtirib, uning optimal darajadan yuqori ko'rsatkichi mavjud shakllangan zahiralardan samarali foydalanish orqali xo'jalik subyektlari raqobat pozitsiyasini mustahkamlashda o'ziga xos ravishdagi "imkoniyatlarni boy berish" deb hisoblash mumkin.

Moliyaviy barqarorlik nafaqat moliyaviy resurslar va risklarni oqilona taqsimlanishining pirovard natijasi hisoblanadi, balki jamg'armalarni to'plash, boylikni jamg'arilishiga shart-sharoit yaratish hamda to'lov tizimining uzluksiz ravishda amal qilishi bilan bog'liq tizimli jarayonlarni to'g'ri tashkil qilishga ham bog'liqdir. Ya'ni moliyaviy barqarorlik yaqin va o'rta istiqbolda iqtisodiy nochorlikning yuz berish ehtimolligining moliyaviy zahiralalar zonasini o'zida mujassamlashtirib, ushbu zona xo'jalik subyektlari ichki biznes muhiti sharoitida dinamik va barqaror muvozanat sharoitida to'lov qobiliyati va moliyaviy likvidlilikni ta'minlash imkoniyatlarini o'zida mujassamlashtiradi. Bunda dinamik barqaror muvozanat sharoitida uzluksiz takror ishlab chiqarish jarayonining muvozanati sharoitida yuqori ishbilarmon faollikning ta'minlanishi foydaning to'planish darajasi orqali namoyon bo'ladigan to'lov qobiliyati va likvidlilikning barqaror moliyaviy zahirasi shakllanishi nazarda tutiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Yuqorida tahlil qilingan klassik va zamonaviy xorijiy moliyachi-iqtisodchi olimlar vakillarining ilmiy qarashlari sintezi asosida ta'kidlash mumkinki:

– moliyaviy menejment tizimida moliyaviy barqarorlik pirovard natijada moliyaviy majburiyatlarni o'z vaqtida va to'liq qaytarish imkoniyatining mavjudligida namoyon bo'ladi;

14 Altman, Edward I. [Financial Ratios, Discriminant Analysis and the Prediction of Corporate Bankruptcy](#) (angl.) // [Journal of Finance](#) (angl.)rus. : journal. — 1968. — September. — P. 189—209. — doi:10.1111/j.1540-6261.1968.tb00843.

15 Izoh: Ayrim manbalarda ushbu indeksni "Kredit qobiliyati ba'olashning Z-Altman modeli"- deb atash ham qabul qilingan. Qarang: <https://ru.wikipedia.org/Model> Altmana



– moliyaviy barqarorlikning makro va mikroiqtisodiy jihatlarini uni jami iqtisodiy resurslar tarkibidagi moliyaviy resurslar harakati bilan bog'liq muvozanatli takror ishlab chiqarish jarayoni uzluksizligini ta'minlash jarayonini o'zida mujassamlashtirishida namoyon bo'ladi;

– moliyaviy barqarorlik makroiqtisodiy barqarorlikning asosiy komponenti hisoblanib, uzluksiz takror ishlab chiqarish jarayonining moliyaviy ekspluatatsion ehtiyojlarini optimal ta'minlash orqali moliyaviy resurslarni samarali boshqarish pirovard natijasi hisoblanadi;

– moliyaviy barqarorlik milliy iqtisodiyotning barcha iqtisodiy agentlari: davlat, xo'jalik subyektlari va uy xo'jaliklarining uzluksiz moliyaviy-iqtisodiy faoliyatini moliyaviy ta'minlashning mustahkam zahirasi yaratish bilan bog'liq tizimli jarayondir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Черняева О.А. Экономический механизм управления устойчивостью функционирования предприятий // Вестн. Самар. гос. эконом. ун-та. 2008. № 8 (46). С. 124–128.
2. Долгих Ю.А., Агарков Г.А. К проблеме современного понимания финансовой устойчивости предприятия // Вестник УРФУ. Серия Экономика и управление. № 2/2014.-С.147
3. Курилова А.А. Современные концепции финансовой устойчивости в финансовом менеджменте // Карельский научный журнал. 2017. Т.6. № 1(18).
4. Black F., Scholes M. The Pricing of Options and Corporate Liabilities // PolitEcon. – 1973.;
5. Brealey R. and Myers S. and Allen F. Principles of corporate finance. Seventh edition. Mc Graw Hill McGraw-Hill., 2020.;
6. Бригхем Ю., Гапенски Л. Финансовый менеджмент.: пер. с англ./ под ред. В.В. Ковалева, - СПб.: Экономическая школа, 1997.;
7. Davies D. The Art of Managing Finance. Mc. Graw-Hill.inc, 1992;
8. Lintner J. Prices, Risk and Maximal Gains from Diversification// Finance. 1965. - № 4. Dec.; Markowitz H. Portfolio Selection// Finance. - 1952. - March.;
9. Модильяни Ф., Миллер М. Сколько стоит фирма? Теорема MM: пер. с англ. - М.: Дело, 1999;
10. Mossin J. Equilibrium in Capital Asset Market // Econometrica. - 1966. - № 4. Oct.; Sharpe W.F. Capital Asset Prices: A Theory of Market Equilibrium under Conditions of Risk // Finance. -1964. -September.
11. М.А. Власенко Управление финансовой устойчивостью организации: Метод. аспект. Дисс. на соискание степени кэн // Новосибирск 2022.
12. Zorn, A., Esteves, M., Baur, I., & Lips, M. (2018). Financial ratios as indicators of economic sustainability: A quantitative analysis for Swiss Dairy Farms Sustainability, 10(8).
13. Altman, Edward I. [Financial Ratios, Discriminant Analysis and the Prediction of Corporate Bankruptcy](#) (англ.) // [Journal of Finance](#) (англ.)рус. : journal. — 1968. — September. — P. 189—209. — [doi:10.1111/j.1540-6261.1968.tb00843.](#)

Muhandislik va Iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2024. № 5

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**

